

IJTIMOIIY ISHCHILAR: MAKTABLARINING SHAKLLANISHI: TARIXIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Namangan davlat pedagogika institute
IJT-AU-25 guruh talabasi **Qurvonaliyeva Gulzoda**
Ilmiy rahbar: **Habibjonva Nodira.**

Anotatsiya: Mazkur tezis ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanishi, ularning tarixiy bosqichlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy tahlil qiladi. Unda ijtimoiy ish kasbining dastlabki paydo bo'lish omillari, XIX–XX asrlarda professionalizatsiya jarayoni, sovet davridagi o'ziga xosliklar, mustaqillikdan keyingi O'zbekistondagi yangi institutlashuv jarayonlari va hozirgi global tendensiyalar yoritilgan. Tadqiqot ijtimoiy ishchilar tayyorlash tizimining takomillashuvi, universitetlar va amaliyot markazlari o'rtasidagi integratsiya, kasbiy etikani mustahkamlash hamda xalqaro standartlarga yaqinlashuv jarayonlarini qamrab oladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, ijtimoiy ishchilar maktabi, kasbiy shakllanish, tarixiy bosqichlar,

«ФОРМИРОВАНИЕ ШКОЛ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ».

Студентка Намаганского государственного педагогического института
группы ИТ-AU-25 — Курвоналиева Гульзода
Научный руководитель: Хабибжонова Нодира.

Аннотация: Данная тезисная работа посвящена анализу формирования школ социальных работников, их исторических этапов и современных тенденций развития. В исследовании рассматриваются предпосылки появления социальной работы как профессии, процессы профессионализации в XIX–XX веках, вклад Мэри Ричмонд и Джейн Аддамс, специфика советского периода, а также институциональное становление социальной работы в Узбекистане после обретения независимости. Особое внимание уделено модернизации системы подготовки социальных работников, укреплению практико-ориентированного обучения, интеграции университетов и социальных служб, развитию профессиональной этики и приближению национального образования к международным стандартам.

Ключевые слова: социальная работа, школа социальных работников, профессиональное становление, исторические этапы, профессионализация, практика, социальная педагогика, тенденции развития.

FORMATION OF SCHOOLS OF SOCIAL WORKERS: HISTORICAL STAGES AND DEVELOPMENT TRENDS

Student of Namangan State Pedagogical Institute,
group IJT-AU-25 — Qurvonaliyeva Gulzoda
Scientific advisor: Nodira Khabibjonova.

Annotation: This thesis analyzes the formation of social work schools, their historical stages, and modern development trends. The study examines the origins of social work as a profession, the professionalization processes of the 19th–20th centuries, and the contributions of Mary Richmond and Jane Addams. It also explores the characteristics of the Soviet period, as well as the institutional development of social work education in Uzbekistan after independence. Special attention is given to the modernization of training systems for social workers, the strengthening of practice-oriented learning, the integration between universities and social service institutions, the development of professional ethics, and the alignment of national education with international standard

Keywords: school of social workers, professional formation, historical stages, professionalization, field practice, social pedagogy, development trends

1.Kirish:

Ijtimoiy ish kasbi jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyat bo‘lib, uning shakllanishi turli davrlarda yuzaga kelgan ehtiyojlar bilan bog‘liqdir [3]. XIX asr oxirlariga kelib aholining ijtimoiy himoya ehtiyojlarining ortishi, urbanizatsiya va industrial jamiyatning shakllanishi ijtimoiy yordam tizimining professional yo‘nalishga o‘tishiga sabab bo‘ldi [1]. Maqolaning maqsadi — ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanish bosqichlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdir. Ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanish jarayoni jamiyat rivoji uchun muhim ilmiy-huquqiy zamin yaratgan murakkab tarixiy bosqichlardan iborat. Ayniqsa, ijtimoiy ishning professional kasb sifatida shakllanishida inson huquqlari konsepsiyasi, ijtimoiy adolat tamoyillari va davlatning ijtimoiy siyosatga bo‘lgan yondashuvi muhim rol o‘ynagan. Menimcha, ijtimoiy ishning rivojlanish bosqichlarini o‘rganish nafaqat tarixiy jarayon sifatida, balki hozirgi zamonaviy ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asos sifatida ham katta ahamiyatga ega. Chunki har bir bosqichda shakllangan tajriba bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, ehtiyojmand guruhlar bilan ishlash, hamda ijtimoiy siyosatni modernizatsiya qilishda muhim metodologik yo‘nalishlarni belgilab beradi. Ijtimoiy soha jamiyatimiz va fuqarolarimiz hayotida tobora muhimroq o‘rin egallab bormoqda. Chunki zamonaviy rivojlanish jarayonida aholi farovonligini ta‘minlash, ijtimoiy tenglikni qaror toptirish, aholining turli

qatlamlari bilan manzilli ishlash samaradorligi aynan professional ijtimoiy ish tizimining yetukligiga bog'liq. Bugungi kunda ijtimoiy ish faqat ijtimoiy yordam yoki ko'mak ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatdagi strukturaviy muammolarni o'rganish, ijtimoiy muhitni tahlil qilish va tizimli yechimlar taklif etish kabi ilmiy yondashuvni talab qiladigan sohaga aylangan. Ayniqsa, global o'zgarishlar, demografik jarayonlar, migratsiya, axborot oqimining kuchayishi va aholining ehtiyojlaridagi murakkabliklar ijtimoiy ishchilar oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda.

2. Tadqiqot usullari:

Tadqiqotda ijtimoiy ish tarixi va nazariyasiga oid monografiyalar, xalqaro tashkilotlar (IFSW, IASSW) hujjatlari hamda klassik asarlar tahlil qilindi [3], [4]. Tarixiy-tahliliy yondashuv orqali ijtimoiy ish maktablarining shakllanishi davrlashtirildi. Taqqoslash usuli yordamida Yevropa va Amerika modellari solishtirildi [5]. Kontent-analiz orqali nazariy yo'nalishlar tizimlashtirildi [6]. Ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanishini tadqiq etishda tarixiy-tahliliy yondashuv eng optimal va ishonchli usullardan biridir. Chunki ijtimoiy ishning nazariy va amaliy asoslari turli tarixiy bosqichlarda shakllangan bo'lib, ularni to'liq anglash uchun manbalarni ketma-ketlikda tahlil qilish zarur. Shu bilan birga, taqqoslash usuli ham dolzarb ahamiyatga ega, deb hisoblayman. Turli mamlakatlarda shakllangan maktablarni qiyoslash orqali ularning umumiy tamoyillari, farqlari va o'ziga xos metodologik yondashuvlari aniqlanadi. Menimcha, kontent-analiz usulining qo'llanishi ham tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi, chunki u ijtimoiy ishga oid nazariy manbalardagi takrorlanadigan g'oyalar, konsepsiyalar va rivojlanish tendensiyalarini tizimli ravishda ajratib olish imkonini beradi. Umuman olganda, mazkur usullarning kombinatsiyasi ijtimoiy ish maktablari evolyutsiyasini chuqur va obyektiv tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu mavzuni o'rganishda men bir nechta asosiy ilmiy usullardan foydalandim. Mavzu keng va tarixiy jarayonlarga boy bo'lgani uchun, aynan quyidagi usullar eng to'g'ri va qulay deb o'yladim.

1. Tarixiy tahlil usuli.

Men avvalo ijtimoiy ishchilar maktablari qachon paydo bo'lganini, qanday sharoitlar bunga sabab bo'lganini va bu jarayon bosqichma-bosqich qanday rivojlanganini o'rgandim. Shaxsiy fikrimcha, tarixni bilmasdan turib, hozirgi tizimni to'liq tushunib bo'lmaydi.

2. Taqqoslash usuli.

Men turli davlatlarda ijtimoiy ish bo'yicha ta'lim qanday yo'l bilan rivojlanganini solishtirib chiqdim. Bu usul menga boshqa mamlakatlarda qanday yaxshi tajribalar borligini ko'rishga yordam berdi. O'zimcha aytganda, solishtirish orqali bizning tizimda qaysi jihatlar kuchli, qaysilari esa rivojlantirishga muhtoj ekanini aniqlash osonroq bo'ladi.

3. Hujjatlar va manbalar tahlili.

Men, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar materiallarini tahlil qilib chiqdim. Menimcha, rasmiy manbalarga tayanish tadqiqotni yanada ishonchli qiladi va mavzu bo'yicha aniq tasavvur beradi.

4. Umumlashtirish usuli.

Oxirida barcha manbalarni birlashtirib, umumiy xulosa chiqarishga harakat qildim. Bu usul menga o'rganilgan ma'lumotlarni tartibga solishga va aniq natija chiqarishga yordam berdi. Umumlashtirish tadqiqotning eng muhim bosqichlaridan biridir.

3.Natijalar.

1-bosqich: Xayriya faoliyati davri (XIX asr oxiri)

Bu davrda ijtimoiy yordam diniy jamoalar va xayriya tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan. Ijtimoiy ish hali kasb sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, zamonaviy ijtimoiy ishning ildizlari aynan shu davrga borib taqaladi [1].

2-bosqich: Kasbiy ijtimoiy ishning paydo bo'lishi (1900–1920)

AQSH va Yevropada Nyu-Yorkdagi "Settlement House" harakatlari, Jane Addamsning Hull House tajribasi ijtimoiy ishning ilmiy-amaliy maktabi sifatida tanilishiga asos bo'ldi [2]. Mary Richmondning "casework" metodini ishlab chiqishi ijtimoiy ish nazariyasiga ilmiy asos yaratdi [1].

3-bosqich: Ilmiy metodologiyaning shakllanishi (1920–1950)

Ijtimoiy ish psixologiya, sotsiologiya va pedagogika bilan integratsiyalasha boshladi [4]. Groupwork va community work metodlari rivojlandi. Universitetlarda ijtimoiy ish fakultetlari ochildi [5].

4-bosqich: Kasbiy standartlashuv va kengayish davri (1950–1990)

Bu davrda davlat siyosati bilan bog'liq ijtimoiy xizmatlar tizimi shakllandi. Skandinaviya, AQSH va Buyuk Britaniyada kompleks ijtimoiy himoya tizimi ishlab chiqildi [6]. Etik kodekslar, professional standartlar va nazariy yondashuvlar yanada boyidi [3].

5-bosqich: Globallashuv va zamonaviy tendensiyalar (1990–hozirgi davr)

Zamonaviy davrda multidisiplinar jamoalarda ishlash, inson huquqlari, gender yondashuv, raqamli ijtimoiy ish va inklyuziv xizmatlar ustuvor yo'nalishga aylandi [3], [6]. Raqamli texnologiyalar asosida masofaviy konsultatsiya, ijtimoiy monitoring va elektron xizmatlar shakllandi. O'ylashimcha har bir bosqich nafaqat tarixiy jarayon sifatida, balki jamiyatning ehtiyojlariga moslashish jarayoni sifatida qiziqarli. Masalan, xayriya davrida yordam ko'rsatishning intuitiv shakllari mavjud bo'lsa, keyingi bosqichlarda metodologik asos paydo bo'ldi va bu ijtimoiy ishni kasbga aylantirdi. Zamonaviy davrda raqamli xizmatlar, multidisiplinar jamoalarda ishlash va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlar esa ijtimoiy ishning jamiyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

4. Munozara.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanishi jamiyat taraqqiyoti va ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanib borgan. Mary Richmondning casework modeli [1] va Jane Addamsning jamoaviy yondashuvi [2] zamonaviy ijtimoiy ishning ikki asosiy yo'nalishi — individual va jamoaviy ishning shakllanishiga zamin yaratdi. Zamonaviy tendensiyalar (raqamli ijtimoiy ish, global etik me'yorlar, inson huquqlariga asoslangan yondashuvlar) xalqaro tashkilotlar tomonidan taklif etilgan global ijtimoiy ish ta'riflariga mos keladi [3]. Tadqiqotning asosiy cheklovi — tarixiy manbalarga tayanilganligi va amaliy holatlarning yetarli darajada qamrab olinmaganligidir. Kelajakda empirik tadqiqotlar bilan boyitilgan kengaytirilgan modellarga ehtiyoj mavjud. Fikrimcha, zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar, global etik me'yorlar va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlar ijtimoiy ish maktablari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, turli mamlakatlar tajribasini o'rganish va solishtirish amaliyotni takomillashtirishga yordam beradi.

5. Xulosa

Tadqiqot natijalari ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanishi besh asosiy bosqichda amalga oshganini ko'rsatdi. Kasb dastlab xayriya faoliyatidan boshlab, ilmiy usullar, kasbiy standartlar va global etik me'yorlar bilan boyigan holda professional tizimga aylandi. Bugungi kunda ijtimoiy ish global jarayonlar, raqamli texnologiyalar va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Ijtimoiy ishchilar maktablari tarixi nafaqat kasbning rivojlanish jarayonini ko'rsatadi, balki jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga doimiy moslashish tendensiyasini ham ochib beradi. Bugungi kunda ijtimoiy ish shunchaki yordam ko'rsatish bilan cheklanmay, jamiyatdagi muammolarni tizimli ravishda aniqlash, ularni oldini olish va ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi vazifalarni ham o'z zimmasiga olgan. Shuningdek, tarixiy tajribani chuqur o'rganish zamonaviy ijtimoiy ish maktablari uchun strategik imkoniyatlar yaratadi: masalan, yangi metodlar joriy etish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, multidisiplinar jamoalarda samarali ishlash va fuqarolar ehtiyojini ilg'or usullarda qondirish. Shu sababli, ijtimoiy ishchilar maktablarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham juda muhimdir. Mening fikrim shuki, kelajakda bu tadqiqotlar asosida ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish, kasbiy standartlarni takomillashtirish va jamiyatning ehtiyojiga tez moslashadigan tizim yaratish imkoniyati mavjud.

6. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richmond, M. Social Diagnosis. New York, 1917.
2. Addams, J. Twenty Years at Hull House. 1910.
3. IFSW & IASSW. Global Definition of Social Work, 2014–2020.

4. Payne, M. Modern Social Work Theory. Palgrave Macmillan, 2014.
5. Howe, D. An Introduction to Social Work Theory, 2009.
6. Midgley, J. Social Development: Theory and Practice, 2013.